

20-May, 2025-yil

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA NARKOTIK VA GIYOHVAND MODDALAR BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN JINOYATLARNI FOSH ETISH

Murodaliyev Abdukabir Mahmudjon o‘g‘li

IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Narkotik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar zamonaviy davrda jahon miqyosida dolzarb va xavfli muammo sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham mazkur tahdidlardan xoli emas. Davlatimizda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi, ularni tarqatish, saqlash, iste’mol qilish va kontrabanda yo’llari bilan olib kirish bilan bog‘liq jinoyatlar soni ortib bormoqda. Ushbu holat ichki ishlar organlarining narkojinoyatchilikka qarshi kurashishdagi roli va vazifalarini yanada kuchaytirishni, zamonaviy texnologiyalar, tezkor-qidiruv faoliyatini optimallashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zaruratinini yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari tomonidan narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash, ularni fosh etish va oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar chuqur tahlil qilinadi. Shu jumladan, tezkor-qidiruv va profilaktik ishlarning uslubiy yondashuvlari, statistik ko‘rsatkichlar, qonunchilikdagi islohotlar va jinoyatchilik dinamikasining xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ichki ishlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, ixtisoslashtirilgan bo‘lmalarning roli, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Tahlillarga asoslangan holda, mavjud muammolar, jumladan, tezkor ma’lumot almashinushi tizimining yetarlicha ishlamasligi, ayrim hududlarda malakali kadrlar tanqisligi, giyohvand moddalar oqimini aniqlashda texnik jihozlarning yetishmovchiligi kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba asosida takliflar ishlab chiqiladi. Jumladan, “giyohvandlikka qarshi kurashish” milliy platformasini yaratish, profilaktik va rehabilitatsion dasturlarni kuchaytirish, fuqarolik jamiyatni institutlarini jalb etish kabi yo‘nalishlar asosiy takliflar sirasiga kiradi. Maqola yakunida, ichki ishlar organlarining narkojinoyatlarga qarshi samarali kurashishi uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish, tezkor-texnik vositalarni modernizatsiyalash, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro tajribadan foydalanish zarurligi xulosa qilinadi. Shu bilan birga, giyohvandlikka qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat zimmasidagi vazifa ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: narkotik vositalar, giyohvandlik, jinoyatni fosh etish, ichki ishlar organlari, kontrabanda, tezkor-qidiruv, profilaktika, jinoyatchilikka qarshi kurash, texnik vositalar, xalqaro hamkorlik.

Аннотация; Преступления, связанные с оборотом наркотических и психотропных веществ, остаются одной из самых острых угроз безопасности общества в XXI веке. Республика Узбекистан не является исключением в этом вопросе. В последние годы увеличивается количество преступлений, связанных с незаконным оборотом, распространением, хранением, употреблением и контрабандой наркотических средств. В связи с этим особую актуальность

20-May, 2025-yil

приобретает деятельность органов внутренних дел по выявлению, раскрытию и предотвращению таких преступлений. В данной статье подробно анализируются меры, принимаемые органами внутренних дел Узбекистана в борьбе с наркопреступностью. Рассматриваются методы оперативно-розыскной и профилактической деятельности, статистические данные, особенности динамики наркопреступлений, реформы законодательства, а также эффективность профессиональной подготовки сотрудников и использование современных технических средств. Особое внимание уделяется существующим проблемам: недостаточной скоординированности информационного обмена, нехватке квалифицированных кадров в отдельных регионах, ограниченному техническому оснащению для обнаружения наркотрафика. В статье также представлены предложения, основанные на международном опыте, включая разработку Национальной антинаркотической платформы, расширение реабилитационных и профилактических программ, а также вовлечение институтов гражданского общества. В заключении подчеркивается необходимость дальнейшего совершенствования нормативно-правовой базы, модернизации технических средств оперативной деятельности, повышения кадрового потенциала и активного использования зарубежного опыта. Автор особо отмечает, что борьба с наркоманией – это не только задача органов внутренних дел, но и ответственность всего общества.

Ключевые слова: наркотические средства, наркомания, раскрытие преступлений, органы внутренних дел, контрабанда, оперативно-розыскная деятельность, профилактика, борьба с преступностью, технические средства, международное сотрудничество.

Abstract: Crimes related to the trafficking and misuse of narcotic and psychotropic substances represent a major security and public health concern worldwide. The Republic of Uzbekistan is no exception to this global trend. The number of crimes involving the illegal circulation, distribution, possession, consumption, and smuggling of drugs has increased in recent years. This growing threat necessitates more effective involvement of law enforcement agencies, particularly the internal affairs bodies, in identifying, exposing, and preventing drug-related crimes. This article provides an in-depth analysis of the current measures being implemented by the Ministry of Internal Affairs of Uzbekistan to combat drug crimes. It examines the operational and preventive methods used, legislative reforms, crime dynamics, statistical data, and the role of professional training and modern technological tools in uncovering narcotics offenses. The paper also assesses the effectiveness of specialized units within law enforcement in addressing these complex issues. The analysis highlights several challenges: inefficiencies in intelligence-sharing systems, lack of skilled personnel in remote regions, and limited technical capabilities for detecting drug trafficking routes. Drawing on international practices, the paper proposes a number of strategic solutions such as establishing a national anti-drug coordination platform, strengthening preventive and rehabilitative programs, and enhancing cooperation with civil

20-May, 2025-yil

society institutions. The conclusion emphasizes the need to further improve legal frameworks, modernize the technical equipment used in law enforcement operations, invest in the professional development of personnel, and adopt international best practices. The article asserts that the fight against narcotics is not solely a matter for law enforcement, but a shared responsibility of the entire society.

Key words: narcotic substances, drug addiction, crime detection, internal affairs bodies, smuggling, investigative operations, prevention, crime prevention, technical tools, international cooperation.

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka, inson salomatligiga, huquqiy tartibga va xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavfli jinoyatlardan biri bu – narkotik va giyohvand moddalar bilan bog‘liq jinoyatlardir. Ularning salbiy ta’siri nafaqat jinoyat statistikasi ko‘rsatkichlarida, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga, yosh avlodning sog‘lom kamol topishiga va mehnat unumdoorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu global tahdidlar ta’siridan xoli emas. Mamlakatimizda narkotik vositalarning noqonuniy muomalasi, ularning tarqatilishi, kontrabanda yo‘li bilan olib kirilishi, shuningdek, yoshlar o‘rtasida ularni iste’mol qilish holatlarining ortib borayotgani jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Giyohvandlikning tarqalishi natijasida yuzaga kelayotgan jinoyatlar va ularning oqibatlari jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz holatini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, narkojinoyatlar ko‘pincha guruhlar tomonidan tashkil etilishi, ularning transmilliy xususiyat kasb etishi, moliyaviy manbalarining kuchliligi va jinoyatlarni yashirishda ilg‘or texnologiyalardan foydalilanilayotgani ularni aniqlash va fosh etishni murakkablashtirmoqda. Shu sababli, mazkur jinoyatlar bilan kurashish, ularni aniqlash va fosh etish bo‘yicha ichki ishlar organlarining roli va vazifalari tobora ortib bormoqda. Ichki ishlar organlari davlatimizda huquqiy tartibotni ta’minalash, fuqarolarning xavfsizligini himoya qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida asosiy tuzilmaviy tuzilmalardan biri hisoblanadi. Mazkur organlar tomonidan narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etishda tezkor-qidiruv faoliyatining kuchaytirilishi, statistik ma’lumotlar asosida tahlil olib borilishi, jinoyatchilik dinamikasining monitoringi hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali samaradorlikka erishilmoqda. Shu bilan birga, profilaktika va ogohlilik choralarini kuchaytirish, ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish, fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorlik qilish ham ichki ishlar tizimining dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish faqat ichki ishlar organlarining emas, balki butun jamiyatning, xususan ta’lim, sog‘liqni saqlash, ommaviy axborot vositalari, diniy-ma’rifiy idoralar va boshqa muassasalar ishtirokida olib borilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada ichki ishlar organlarining narkojinoyatlarni aniqlash, ularni fosh etish va oldini olish borasidagi faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatish, shuningdek, xorijiy tajriba asosida samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi. Mazkur kirish qismi, mavzuning

20-May, 2025-yil

dolzarbligini asoslab berish, ichki ishlar organlarining hozirgi holatini va ular duch kelayotgan real muammolarni yoritish, shuningdek maqolada ko‘tariladigan asosiy masalalar doirasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shubhasiz, narkojinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasining muvaffaqiyati ichki ishlar organlarining professionalligi, texnik jihozlanish darajasi va jamiyat bilan o‘zaro hamkorligiga chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, ushbu maqola ichki ishlar tizimining zamonaviy yondashuvlar asosida qanday rivojlanayotgani va qanday natijalarga erishayotgani haqida chuqur ilmiy-tahliliy yondashuv asosida ma’lumot beradi.

ASOSIY QISM

Narkotik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar murakkab jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatlar ko‘pincha turli darajadagi ijtimoiy, iqtisodiy va hatto siyosiy beqarorlikka olib keladi. Shu bois, ichki ishlar organlarining narkojinoyatchilikka qarshi olib borayotgan faoliyati o‘ta muhim va mas’uliyatlari jarayon bo‘lib, unda zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiyalar va tezkor hamkorlik mexanizmlari asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Birinchidan, narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va fosh etishning samarali usullaridan biri bu – tezkor-qidiruv faoliyatini takomillashtirishdir. Ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan tezkor xodimlar maxfiy kuzatuvlar, agentura ma’lumotlari, texnik kuzatuvlar, mobil aloqalarni monitoring qilish kabi vositalardan foydalangan holda jinoyatni aniqlashga harakat qiladilar. Bu jarayonda tezkor tadbirdar rejasini to‘g‘ri tuzish, maqsadli guruhlarni aniqlash va ularning faoliyatini fosh etish katta ahamiyatga ega. Ikkinchidan, giyohvand moddalarining noqonuniy aylanishini aniqlashda statistik va tahliliy ishlar ham muhim o‘rin tutadi. Hududlar kesimida jinoyatchilik holatini tahlil qilish, jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar va xavfli hududlarni aniqlash orqali ichki ishlar bo‘limlari o‘z faoliyatini maqsadli yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, jinoyatlarning takroriy sodir etilishiga olib keluvchi omillar – ishsizlik, ijtimoiy nazoratning sustligi, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning yetarli emasligi – aniqlanib, ularga qarshi kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Uchinchidan, ichki ishlar organlarining giyohvand moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashda texnik vositalardan foydalanish darajasi alohida e’tiborga loyiqidir. So‘nggi yillarda mobil laboratoriylar, portativ kimyoviy analizatorlar, videokuzatuv texnologiyalari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar (masalan, yuzni aniqlash tizimlari) joriy qilinmoqda. Bular yordamida hujjatlarni soxtalashtirish, dorixonalarda noqonuniy dorilar savdosi, internet orqali giyohvandlik vositalarining reklama qilinishi kabi zamonaviy tahdidlar aniqlanmoqda. To‘rtinchidan, ichki ishlar tizimidagi profilaktik chora-tadbirlar ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada maktablar, litseylar, kollejlар, oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda o‘quv-seminarlar o‘tkazish, giyohvandlikning zararli oqibatlarini yorituvchi videoroliklar, vijdonli fuqaro sifatida narkotik vositalardan voz kechish mavzusida targ‘ibot tadbirdarini olib borish samarali natijalar bermoqda. Shu o‘rinda, fuqarolik jamiyati institutlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning, OAVning roli ham ortib bormoqda. Beshinchidan, ichki ishlar organlarida kadrlar salohiyatini oshirish, xodimlarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish, ular orasida giyohvandlikka qarshi kurash bo‘yicha ixtisoslashgan guruhlar tashkil etish muhim yo‘nalishlardan biridir. Zamonaviy

20-May, 2025-yil

giyohvand moddalar tarkibining murakkabligi, ularning tashqi ko‘rinishdagi yashirinligi, texnik usulda aniqlash zarurati mutaxassislarining bilim va ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yadi. Shu bois, xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashish, o‘quv dasturlarini yangilash va doimiy malaka oshirish ishlari muntazam olib borilishi kerak. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, ya’ni boshqa mamlakatlar ichki ishlar organlari bilan axborot almashish, qo‘shma tezkor tadbirlar o‘tkazish, “Interpol”, “SNG giyohvandlikka qarshi markazi”, “UNODC” kabi xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik qilish ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada samarali qiladi. Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarining narkojinoyatchilikka qarshi kurashi ko‘p yo‘nalishli, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda tezkor-qidiruv faoliyati, texnik vositalardan foydalanish, statistik tahlil, profilaktik ishlar, kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik va fuqarolik jamiyati bilan ishlashning integratsiyalashgan shakllari asosiy o‘rin tutadi. Faqatgina ushbu barcha yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda olib borilgan taqdirdagina, narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi samarali kurashish bo‘ladi.

XULOSA

Narkotik va giyohvand moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olish – bu zamonaviy jamiyat oldida turgan dolzarb va murakkab muammolardan biridir. Narkojinoyatlar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan ham katta zarar yetkazadi. Bunday jinoyatlar jamiyatda beqarorlikni kuchaytiradi, sog‘lom turmush tarziga putur yetkazadi, ayniqsa yoshtar orasida axloqiy buzulishga sabab bo‘ladi. Shu boisdan, ichki ishlar organlarining ushbu sohadagi faoliyati nafaqat davlat, balki butun jamiyat uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ichki ishlar organlarining narkojinoyatlarga qarshi kurashdagi asosiy yo‘nalishlari – tezkor-qidiruv faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, statistik tahlillarga asoslangan yondashuvni kuchaytirish, ijtimoiy profilaktika ishlarini yo‘lga qo‘yish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi yagona va yaxlit tizimda uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgandagina, natijadorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Xususan, tezkor-qidiruv faoliyatining zamonaviy shakllarini joriy etish orqali narkojinoyatlarni aniqlash samaradorligi oshirilmoqda. Internet texnologiyalaridan foydalangan holda noqonuniy savdo tarmoqlari, yashirin laboratoriylar, kontrabanda kanallari aniqlanmoqda. Bundan tashqari, sun’iy intellekt, mobil tahliliy qurilmalar, biometrik aniqlash tizimlari kabi ilg‘or texnikalar jinoyatchilarini aniqlash va ushslashda muhim rol o‘ynamoqda. Bu esa ichki ishlar xodimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishini talab etadi. Shuningdek, profilaktika tadbirlari doirasida aholi, ayniqsa yoshtar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, ta’lim muassasalarida targ‘ibot-tashviqot faoliyatini kengaytirish zarur. Giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, giyohvandlikni rad etish madaniyatini ommalashtirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar, NNTlar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallashi lozim. Chunki giyohvandlikni faqat jinoyat sifatida emas, balki ijtimoiy xavf sifatida baholash va unga kompleks yondashuv zarur. Narkojinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o‘rni

20-May, 2025-yil

beqiyosdir. Chunki narkotik vositalarning noqonuniy aylanishi ko‘pincha chegaralar osha amalga oshiriladi. Bu esa transmilliy jinoyatchilikning rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli, O‘zbekiston ichki ishlar organlari xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar (Interpol, UNODC, SCO, SNG davlatlari va boshqalar) bilan hamkorlikda tezkor operatsiyalar, ma’lumot almashinuvi va treninglar o‘tkazishni yanada kuchaytirishi lozim. Ayniqsa, kadrlar salohiyatini oshirish, xodimlarni maxsus tayyorlov kurslari orqali malakasini yangilab borish, giyohvandlikka qarshi kurashga ixtisoslashgan bo‘linmalarni zamonaviy bilimlar bilan quollantirish talab etiladi. Chunki narkojinoyatlar doimo shaklini o‘zgartirib, yangi usullardan foydalanayotgan bir vaqtida, ularni aniqlovchi xodimlar ham zamonga mos bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Yana bir muhim jihat shundaki, narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etish nafaqat jazolash, balki bu illatga qarshi kurashda kompleks yondashuvni talab etadi. Reabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam kabi ijtimoiy dasturlar bilan jinoyatchilikning ildiziga qarshi kurashish mumkin. Ichki ishlar organlari bunday ijtimoiy loyihalarda ham faol ishtirok etishi, sog‘lom muhit yaratishda ko‘makchi bo‘lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarining narkojinoyatlarga qarshi kurashishdagi roli beqiyos bo‘lib, ushbu faoliyatni samarali tashkil etish uchun chuqur tahlil, zamonaviy texnologiyalar, kuchli kadrlar, xalqaro va mahalliy hamkorlik zarur. Shunday ekan, bu sohadagi har bir islohot, har bir tashabbus faqat jinoyatchilikni kamaytirishga emas, balki jamiyatda sog‘lom, xavfsiz va barqaror muhit yaratishga xizmat qiladi. Ichki ishlar organlari bu yo‘lda ilg‘or tajriba, qat’iyat va tizimli yondashuv asosida o‘z faoliyatini yanada takomillashtirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Sobirov F.B. “Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida jinoyatlarni fosh etish metodikasi”. – Toshkent: TIFA, 2020.
3. Giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalarning roli // “Kriminalistika va sud ekspertizasi” ilmiy-amaliy jurnali. – 2022, №3.